

SIVILIZATSIYALAR KESISHMASIDA SHARQ VA G‘ARB: UYG‘UNLIKMI YOKI TAFOVUT?

Rasulova Jasmina Djamshid qizi

Renessans Ta’lim Universiteti,
Filologiya va Tarix fakulteti,
Ijtimoiy va siyosiy fanlar kafedrası,
Xalqaro munosabatlar 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sharq va G‘arb renessansi uyg‘unlik va tafovutlar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda analiz–sintez, induksiya–deduksiya hamda qiyosiy-tarixiy metodlar asosida ikki sivilizatsiya o‘rtasidagi madaniy, siyosiy, iqtisodiy va texnik aloqalarning shakllanish jarayoni yoritilgan. Sharq renessansi mutafakkirlarining (al-Farobiy, Ibn Sino, Beruniy) ilmiy merosi G‘arb uyg‘onishiga qanday ta’sir qilgani, Yevropa olimlarining bu jarayonga nisbatan tor doiradagi qarashlari tahlil etilgan. Zamonaviy davrda uyg‘onish g‘oyalarining global kontekstdagi ahamiyati, raqamli madaniyat va texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq yangi “digital renessans” bosqichi haqida fikr yuritilgan.

Ushbu maqolani yozishda analiz–sintez, induksiya–deduksiya, taqqoslash (komparativ), tarixiy-sistemali va kontekstual tahlil metodlari qo‘llanildi. Mazkur metodlar yordamida Sharq va G‘arb Renessansi o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar manbalar asosida ilmiy jihatdan tahlil qilindi hamda umumiy xulosalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: *Renessans, uyg‘onish, Sharq falsafasi, G‘arb sivilizatsiyasi, uyg‘unlik, tafovut, madaniyatlararo aloqalar, sivilizatsiyalar, texnik taraqqiyot, raqamli madaniyat, musulmon renessansi, islom teologiyasi, tasavvuf, tariqat, islom falsafasi.*

ABSTRACT

This article analyzes the Eastern and Western Renaissance from the perspectives of harmony and divergence. Using methods such as analysis–synthesis, induction–deduction, and comparative-historical approaches, the study examines the process of formation of cultural, political, economic, and technological relations between the two civilizations. It explores how the scientific legacy of Eastern Renaissance thinkers—such as al-Farabi, Ibn Sina (Avicenna), and al-Biruni—influenced the Western Renaissance, and critically assesses the Eurocentric and limited interpretations of European scholars regarding this process. The article also discusses the contemporary significance of Renaissance ideas in a global context,

with particular attention to a new stage of “digital renaissance” associated with digital culture and technological development.

In writing this article, methods of analysis–synthesis, induction–deduction, comparative analysis, historical-systematic, and contextual analysis were employed. Through these methods, similarities and differences between the Eastern and Western Renaissance were scientifically examined on the basis of primary and secondary sources, and general conclusions were formulated.

Keywords: Renaissance, revival, Eastern philosophy, Western civilization, harmony, divergence, intercultural relations, civilizations, technological development, digital culture, Muslim Renaissance, Islamic theology, Sufism, tariqa, Islamic philosophy.

АННОТАЦИЯ

В данной статье Восточный и Западный Ренессанс анализируются с точки зрения их гармонии и различий. В исследовании на основе методов анализа–синтеза, индукции–дедукции, а также сравнительно-исторического подхода рассматривается процесс формирования культурных, политических, экономических и технических связей между двумя цивилизациями. Анализируется, каким образом научное наследие мыслителей Восточного Ренессанса (аль-Фараби, Ибн Сины, Беруни) повлияло на Западное Возрождение, а также ограниченность взглядов европейских ученых на данный процесс. В контексте современности рассматривается значение идей Возрождения в глобальном масштабе, а также формирование нового этапа — «цифрового ренессанса», связанного с развитием цифровой культуры и технологического прогресса.

При написании статьи были использованы методы анализа–синтеза, индукции–дедукции, сравнительного (компаративного), историко-системного и контекстуального анализа. С помощью данных методов на основе источников были научно проанализированы сходства и различия между Восточным и Западным Ренессансом и сформулированы обобщающие выводы.

Ключевые слова: Ренессанс, Возрождение, восточная философия, западная цивилизация, гармония, различия, межкультурные связи, цивилизации, технический прогресс, цифровая культура, мусульманский ренессанс, исламская теология, суфизм, тарикат, исламская философия.

KIRISH

Renessans (fransuzcha renaissance — “qayta tug‘ilish”, “uyg‘onish”) insoniyat tarixidagi eng muhim ma’naviy va ilmiy burilish davridir. U qadimgi ilm-fan va madaniyat merosini qayta kashf etish, inson tafakkurining mustaqilligi, erkin fikr va

ijodkorlikning yangi bosqichga ko'tarilishi bilan xarakterlanadi. G'arb tarixida bu jarayon XIV–XVI asrlarda yuz bergan bo'lsa, Sharq uyg'onishi undan bir necha asr avval — IX–XII asrlarda boshlangan edi. Aslida Sharq Renessansi G'arb uyg'onishining poydevori bo'lib, uning ilmiy, falsafiy va ma'naviy ildizlarini yaratgan. Bunda Yevropa xalqlari Sharq xalqlari orqali birinchidan, antik dunyo ilmi-fani, Qadimgi Sharq madaniyati yutuqlarini; ikkinchidan, O'rta Osiyo, Eron va Arabistondan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar ta'limoti, kashfiyotlari, ilmiy tajribalari hosilasini; uchinchidan, Sharq xalqlari adabiyotida kuylangan g'oyalar, qo'llangan usul, uslub va ohanglarni o'rgangan hamda izchil o'zlashtirgan. O'z navbatida, dunyoning deyarli yarmini egallagan, buyuk saltanatga asos solgan Sohibqiron Amir Temur Sharq va G'arb madaniyati, ma'rifati va ma'naviyatiga birdek bag'rikenglik va rag'bat bilan qaragani tufayli XIV- XVI asrlardagi Ikkinchi Sharq Uyg'onish davri – «Temuriylar Renessansi»ga asos solingan. Keyingi bosqichda yana G'arb madaniy hayotda Sharqning merosxo'ri bo'lib maydonga chiqqan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

G'arbning daho shoiri Dante Aligyeri (1265-1321) Birinchi Sharq Uyg'onish davri bilan Yevropa Renessansi davri oralig'ida yashab o'tgan ulug' ijodkordir. Demakki, u Sharq Renessansi qaynarbuloqlaridan suv ichib, G'arb Uyg'onish davri bog'larini yashnatgan. Dantening ijodi Ikkinchi Sharq Uyg'onish davrida ham jahon afkor ommasi, ayniqsa, madaniyat, adabiyot va san'at muxlislari e'tiboridan chetda qolmagan.

Sharqda mavjud bo'lgan ilk o'rta asrlar sivilizatsiyasi butun g'arbg'a ijobiy ta'sir o'tkazgan, keyinchalik g'arbda shakllangan sivilizatsiya Sharq taraqqiyotiga o'z ijobiy ta'sirini o'tkazgan va shu asnoda sivilizatsiyalar millat, xalq va mamlakatlarning o'zaro yaqinlashuvida ham ijobiy ahamiyatga ega bo'lib kelgan. G'arb va Sharq sivilizatsiyalarining o'zaro bir-biriga ta'siri, bir-birini boyitishi insoniyat taraqqiyotining muhim ma'naviy omilidir. Sharq sivilizatsiyasidagi o'z mohiyatiga ko'ra insonparvarlik xarakteriga ega bo'lgan qadriyatlar jahon sivilizatsiyalar rivojlanishida barqarorlikni ta'minlaydi.

Ayniqsa, IX-XV asr musulmon tarixiy-falsafiy merosi, Sharq, aniqrog'i Markaziy Osiyo mutafakkirlarining o'rta asrlar va Uyg'onish davri Ovrupa falsafiy tafakkuriga ko'rsatgan ta'siri hamda ahamiyatini ochib berish xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni tarbiyalashga samarali xizmat qilishi shubhasizdir. Jahon fani rivojida Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va ko'plab bobokalonlarimizning durdona asarlari milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz

bo'lib, ularning beqiyos ilmiy-ma'rifiy kashfiyotlarisiz fan bir muncha achinarli holga tushib qolgan bo'lar edi. Bu fikrni tarix ham isbotlaydi.

1. Sharq Renessansi: Aql, Ma'rifat va Ma'naviyat uyg'onishi.1. Sharq uyg'onishining mohiyati: Sharq Renessansi IX–XII asrlarda Bag'dod, Xorazm, Buxoro, Samarqand, Nishopur, Qohira va Andalusiya markazlarida yuz bergan ilmiy va madaniy yuksalish davridir. Bu jarayonning asosida ilm va e'tiqodning uyg'unligi, ma'naviy komillikka intilish, inson aql-zakovati orqali haqiqatni izlash g'oyalari yotgan. Bu davrda ilm faqat texnik yoki nazariy bilim emas, balki insonni axloqiy va ruhiy jihatdan komillikka yetaklovchi vosita sifatida qaralgan. “Ilm — nur”, “bilim — haqiqat sari yo'l” degan tamoyillar aynan shu davrda shakllandi.

2. Sharq allomalari va ularning ilmiy merosi:

Abu Nasr Forobiy (870–950) - “Sharq Aristoteli” deb ataluvchi Forobiy falsafa, mantiq, siyosatshunoslik va musiqa sohasida chuqur iz qoldirdi. Uning “Fozil odamlar shahri”, “Baxt-saodat haqida” asarlari inson kamoloti, adolatli jamiyat, aqlning ustuvorligi haqida bo'lib, keyinchalik G'arb faylasuflariga — ayniqsa Tomas Akvinskiy va Albert Velikiyga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Abu Rayhon Beruniy (973–1048) - Beruniy ensiklopedik olim bo'lib, astronomiya, geografiya, tarix, matematika, falsafa sohalarini birlashtirdi. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida u ilmni millat yoki din bilan cheklamay, uni butun insoniyat boyligi sifatida ko'rsatgan. Bu g'oya keyinchalik Yevropa ilmiy universallik konsepsiyasiga asos bo'ldi.

Ibn Sino (980–1037) - Sharq tafakkurining eng yuksak cho'qqilaridan biri bo'lgan Ibn Sino “Tib qonunlari” orqali zamonaviy tibbiyot fanining poydevorini yaratdi. Uning “Kitob ush-shifo” asari falsafa, mantiq, fizika va metafizikani o'z ichiga olgan ulkan ensiklopediya bo'lib, u Yevropa universitetlarida XVII asrgacha asosiy o'quv manba sifatida o'qitilgan.

Alisher Navoiy (1441–1501) - Renessans g'oyalarining ma'naviy merosxo'ri sifatida Navoiy o'z asarlarida insoniylik, adolat va komillikni ulug'ladi. “Mahbub ul-qulub”, “Nasoyim ul-muhabbat” kabi asarlarida u insonni yaratuvchi, so'z orqali dunyoni o'zgartira oladigan mavjudot sifatida tasvirlagan.

Bu davrda qomusiy ilm egalari, ajoyib shoirlar, buyuk davlat arboblari yetishib chiqqan. Shuning uchun ham renessans – uyg'onish davri madaniyati, ma'naviyati va ma'rifati mohiyat-e'tibori bilan dunyoviy, gumanistik dunyoqarash, antik davr madaniy merosiga murojaat qilish, bamisoli uning qayta uyg'onishini anglatadi. Uyg'onish davri namoyondalarining qarashlari insonning cheksiz imkoniyatlariga, uning irodasiga, aql-idrokiga ishonib qarashi bilan ajralib turadi. “Renessans” so'zi

“Uyg‘onish”, “Qaytadan tiklash” ma’nolarini bildiradi. Shu munosabat bilan quyidagi savolning qo‘yilishi tabiiydir.

3. Sharq uyg‘onishining asosiy tamoyillari: Inson va aql markazda — ilm Allohni anglash vositasi sifatida. Din va falsafaning uyg‘unligi — ruhiy va mantiqiy bilishning birligi. Ilmning universalligi — bilimlar chegarasiz va barcha xalqlar uchun. Ma’naviy yetuklik — axloqiy komillik ilmiy yuksalish bilan birga yuradi.

II. G‘arb Renessansi: Erkin tafakkur va gumanizm davri

1. Yevropa uyg‘onishining sharoiti: XIV asrda Italiya shahar-davlatlarida iqtisodiy o‘rish, savdo-sotiq va shahar madaniyatining rivoji yangi ijtimoiy sinf — burjuaziya paydo bo‘lishiga olib keldi. U feodal qoloqlikdan ozod bo‘lish, inson erkinligi va ijodkorligini e’tirof etish g‘oyasini ilgari surdi.

2. G‘arb mutafakkirlari va ularning g‘oyalari:

Franchesko Petrarka (1304–1374) - U “Renessans otasi” deb ataladi. U qadimgi rim yozuvchilarining asarlarini tiklab, inson shaxsiy kechinmalari va ruhiy dunyosini san’atga olib kirdi.

Leonardo da Vinchi (1452–1519) - U san’at, mexanika, anatomiya, arxitektura va matematika sohalarida universallik namunasi bo‘ldi. Uning fikricha, “ilm va san’at bir-birini to‘ldiruvchi haqiqatdir.”

Erazm Rotterdamskiy (1466–1536) - U “Insonparvarlik falsafasi” g‘oyasini ilgari surib, cherkovning mutaassibligini tanqid qildi. Insonni aql, axloq va erkin tafakkur orqali kamolga yetishga chorlagan.

Nikolo Makiavelli (1469–1527) - U “Hukmdor” asarida siyosatni diniy qarashlardan ajratib, uni real hayot qonunlari bilan tushuntirdi. Bu zamonaviy siyosatshunoslikning boshlanishiga sabab bo‘ldi.

Mikelanjelo va Rafael - San’atda ideal inson obrazini yaratish, go‘zallik va kuch uyg‘unligini tasvirlash orqali G‘arb Renessansining gumanistik mohiyatini ifodaladilar.

3. G‘arb uyg‘onishining asosiy tamoyillari:

Inson markazda (gumanizm) — “Inson har narsaning o‘lchovidir” (Protagor g‘oyasining yangilanishi). Erkin fikr va tajribaga tayanish — tabiatni anglash orqali haqiqatni topish. San’at va ilm uyg‘unligi — go‘zallik orqali haqiqatni ifodalash. Dunyoviy tafakkur — din emas, inson aqli bosh yo‘lchi sifatida qaraladi.

G‘arb Renessansining o‘ziga xosligi – Yevropa uyg‘onishida inson shaxsining mustaqilligi, san’at va ijod erkinligi markaziy o‘rinni egalladi, bu jihatdan u Sharqning ma’naviy uyg‘onishidan farq qiladi. (101-bet)

Agar Yevropadagi Renessans davri antik, avvalo qadimgi yunon ma’naviy merosini asl shakli va mazmunida tiklash, ilk o‘rta asrlardagi sxolastika va

mutaassiblikning ko‘p asrlik hukmronligidan keyingi uyg‘onish bo‘lsa, islom dini keng tarqalgan mamlakatlarda uyg‘onish nimadan iborat bo‘lgan, uni qaysi ma’noda tushunish kerak? A.Mesning shu mavzudagi kitobi nashrdan chiqishi bilan G‘arb fanida bu masala ham qo‘yila boshlandi. Rekendoverning fikricha, uning dastlabki nashrlaridan birida “Renessans” atamasi “Musulmon imperiyasida” o‘sha davrda sodir bo‘lgan chuqur madaniy o‘zgarishlar, islomning antik madaniyati bilan bog‘liq holda ishlatilgan.

1. G‘arb olimlaridan biri, xususan, nemis sharqshunosi I.Fyuk, Musulmon Renessansi mohiyatini “u asli islomgacha, avvalo ellinistik yo‘nalishning tiklanishi bo‘lgan”, deb ta’rif etadi 2. Nazarimizda, G‘arb olimlarining Musulmon Renessansi deb atalgan tarixiy-madaniy hodisaning mazmun-mohiyatini ochib berish borasidagi qiziqarli va muhim ahamiyatga ega bo‘lgan xulosasiga dastlab R.Fray kelgan. Unga binoan, X va XI asrlarda gullab-yashnagan Renessansning mazmuni Eron va O‘rta Osiyo hududlaridagi umumiy madaniy yuksalish va ravnaq bilan bog‘langan bo‘lib, uni butunlay qadimgi yunon madaniyati, xususan, ilm- fanining tiklanishi bilan bog‘lamaslik kerak 3. Shu o‘rinda yana bir muhim fakt J.Muhammad ta’kidlaganidek, “Agar Yevropa Uyg‘onish davrining birinchi bosqichi XIV asrda Italiyada boshlangan bo‘lsa, nega undan necha yuz yil oldin – IX-XII asrlardagi Musulmon sharqining birinchi Uyg‘onish davri (ana shu masalada ham bir oz noaniqlik mavjud: birinchidan, bu Uyg‘onish aslida VIII asrdan boshlanadi, chunki islom tarixidagi fikriy uyg‘onish va ko‘tarilish aslini olganda ana shu asrdan boshlangan. Islom ta’limoti doirasidagi falsafiy maktablar – mu’taziliya, ash’ariya, moturidiya kabi kalom falsafasi tasavvuf ta’limoti va irfon falsafasi (islom teosofiyasi) aynan ana shu davrda vujudga kelgan. Ikkinchidan, bu uyg‘onish butun Sharq xalqlari va mamlakatlariga emas, balki faqat Musulmon Sharqigagina mansub bo‘lgan.) buyuk ko‘tarilish va yuksalish davrining ilk bosqichi hech kimning, ayniqsa, g‘arbliklarning xayoliga kelmaydi? Sharq doimo G‘arbdan olganlarini e’tirof etib kelgan. Buni Forobiy va Ibn Sinoning falsafiy risolalaridan ham, Ibn Rushdning Arastu asarlariga yozgan sharhlaridan ham bilsa bo‘ladi.

G‘arb ilmiy maktabida sivilizatsiya uyg‘unligi masalasi

G‘arb olimlari sivilizatsiyalarni o‘rganishda ularning madaniy, siyosiy va iqtisodiy asoslarini tahlil qilganlar. Bunda A. Toinbi, O. Shpengler, S. Xantington va F. Fukuyama kabi mutafakkirlar alohida o‘rin tutadi. Masalan, A. Toinbi o‘zining “Tarixni anglash” asarida sivilizatsiyalarning rivojlanishini “chaqiriq va javob” nazariyasi asosida tushuntirib, har bir jamiyatning tashqi muhitga bergan javobi orqali o‘lishini ta’kidlaydi. O. Shpengler esa “Yevropaning qulashi” asarida har bir sivilizatsiyani mustaqil tarixiy organizm sifatida talqin qilib, ularning o‘zaro

uyg'unlashuvi mumkin emasligini ilgari suradi. Keyinchalik S. Xantington "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" nazariyasi orqali XXI asrdagi global ziddiyatlarning manbai sifatida madaniyatlar va dinlar o'rtasidagi tafovutlarni ko'rsatdi. F. Fukuyama esa "Tarixning oxiri" konsepsiyasida g'arb liberal demokratiyasini insoniyat taraqqiyotining eng yuqori nuqtasi sifatida baholadi.

Ammo G'arb nazariyalarining umumiy kamchiligi shundaki, ular sivilizatsiyalar o'rtasidagi uyg'unlik yoki o'zaro boyish jarayonini emas, balki raqobat va to'qnashuv masalalarini markazga qo'yadi. Shuningdek, bu nazariyalarda evrotsentrik (Yevropa markazli) qarashlar ustuvor bo'lib, Sharq sivilizatsiyalari ko'pincha "ikkinchi darajali" yoki "statik" tizim sifatida talqin etiladi. Natijada, g'arb yondashuvlarida sivilizatsiya uyg'unligi faqat siyosiy-iqtisodiy darajada, ma'naviy yoki falsafiy uyg'unlik nuqtai nazaridan esa kam o'rganilgan.

Rossiya ilmiy maktabida sivilizatsiya uyg'unligi masalasi

Rossiya ilm-fanida bu masala XIX asr oxiri — XX asr boshlaridan boshlab "yevraziyachilik" g'oyasi asosida tadqiq etila boshladi. N. Danilevskiy o'zining "Rossiya va Yevropa" asarida Yevropa sivilizatsiyasining yagona taraqqiyot modeli sifatida qaralishini tanqid qilib, har bir sivilizatsiyaning o'ziga xos tarixiy yo'li borligini asoslab berdi. L. Gumilyov esa "Etnogenez va Yer biosferasi" nomli asarida madaniy uyg'unlikni xalqning ichki energiyasi — "passionarlik" bilan bog'lab, sivilizatsiyalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tabiiy va tarixiy jarayon sifatida talqin qiladi. Keyingi rus tadqiqotchilari — A. Panarin, V. Kojenov, A. Dugin — Rossiyaning G'arb va Sharq o'rtasidagi ko'prik, ya'ni aloqadorlik markazi sifatida talqin qiladilar. Biroq bu yondashuvlarning kamchiligi shundaki, Rossiya ilmiy maktabi uyg'unlikni madaniy va insoniy qadriyatlar asosida emas, balki geosiyosiy manfaatlar nuqtai nazaridan izohlaydi. Yevraziyachilik g'oyalari ko'p hollarda Rossiyaning markaziy o'rni va geosiyosiy ustunligini asoslash vositasiga aylanadi. Shu sababli uyg'unlik masalasi ilmiy jihatdan e'tirof etilgan bo'lsa-da, u davlat markazchilik elementlari bilan cheklanadi.

Umuman olganda, G'arb va Rossiya ilmiy maktablari sivilizatsiya uyg'unligi masalasini turlicha talqin qiladi: G'arb olimlari asosan madaniyatlar to'qnashuvi va global ziddiyatlarni tahlil qiladi; Rossiya olimlari esa geosiyosiy uyg'unlik va madaniy markazchilikni asoslaydi.

Shu bilan birga, Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Al-Beruniy va boshqalar) asarlarida sivilizatsiyalar uyg'unligining ma'naviy, axloqiy va ilmiy asoslari ko'rsatib berilgan. Ularning fikricha, uyg'unlik — insonning ilm va ma'naviyat orqali mukammallikka erishish yo'lidir. Aynan shu jihat bugungi global sivilizatsion dialog uchun muhim nazariy asos bo'la oladi.

III. Sharq va G'arb Renessanslari o'rtasidagi uyg'unlik va farqlar

Asosiy jihatlar	Sharq Renessansi	G'arb Renessansi
Davr	IX–XV asrlar	XIV–XVI asrlar
Markazlar	Bag'dod, Xorazm, Samarqand	Florensiya, Rim, Parij
Yetakchi mutafakkirlar	Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek	Leonardo da Vinchi, Petrarka, Erasmus
Asosiy yo'nalishlar	Falsafa, ilm-fan, tibbiyot	San'at, adabiyot, ijtimoiy tafakkur
Maqsad	Ilmiy tafakkurni uyg'otish, haqiqatni bilish	Inson shaxsini va dunyoviy hayotni anglash
Natijasi	Ilm-fan va falsafaning gullab-yashnashi	Insonparvarlik va san'at taraqqiyoti

Har ikki uyg'onish harakati — Sharqdagi ma'rifiy uyg'onish ham, G'arbdagi Renessans ham insonning yaratuvchanligini, bilim orqali kamol topishini e'tirof etadi. Faqat Sharqda bu jarayon diniy-ma'naviy mazmunga ega bo'lgan bo'lsa, G'arbda u dunyoviy-empirik yo'nalishda namoyon bo'ldi. (82-bet)

Uyg'unlik jarayonida o'tgan sivilizatsiyalarning ta'siri

1. Madaniy ta'sir: O'tgan sivilizatsiyalar, ayniqsa Sharq va G'arb renessansi davrlari, insoniyat madaniyatining shakllanishiga asosiy ta'sir ko'rsatgan. Sharq renessansi davrida – Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Jomiy kabi mutafakkirlar ilm, ma'rifat va insonparvarlik g'oyalarini ilgari surib, keyinchalik Yevropadagi Uyg'onish harakatlariga zamin yaratdilar. Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi ideal jamiyat g'oyasi keyinchalik Tomas Morning “Utopiya” va Kampanellaning “Quyosh shahri” kabi asarlarida o'z aksini topgani madaniy uzviylikning yaqqol namunasidir. Shuningdek, musulmon ilmiy merosi — algebra, astronomiya, tibbiyot, arxitektura va tilshunoslik sohalarida Yevropada katta ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sir natijasida G'arb madaniyatining ilmiy asoslari mukammallashdi va ilm-madaniyat uyg'unligi shakllandi. Demak, madaniy uyg'unlik nafaqat g'oyalar almashinuvi, balki ma'naviy va estetik qadriyatlarning bir-birini boyitishidan ham iborat.

2. Siyosiy ta'sir: Siyosiy jihatdan qaralganda, o'tgan sivilizatsiyalar inson boshqaruvi, adolat, huquq va davlatchilik masalalarida zamonaviy siyosiy modellar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Sharq falsafasidagi adolat va boshqaruv uyg'unligi g'oyasi-masalan, Farobiyning ideal davlat nazariyasi, yoki Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asari — keyinchalik Yevropadagi davlatchilik konsepsiyalariga ta'sir etgan. Bundan tashqari, Xitoy va Fors boshqaruv an'analari

ham G'arbdagi byurokratik tizim va davlat tashkilotlarining shakllanishiga ilhom manbai bo'lgan. Yevropadagi siyosiy fikrda, ayniqsa Makiavelli davridan boshlab, Sharq tajribasi orqali inson tabiati va hokimiyat munosabati masalalari yangi ma'no kasb etadi. Siyosiy uyg'unlik natijasida zamonaviy jamiyatda davlat va fuqaro munosabatlarining muvozanati paydo bo'ldi.

3. Iqtisodiy ta'sir: Iqtisodiy sohada ham o'tgan sivilizatsiyalar o'zaro ta'sir orqali insoniyat taraqqiyotini belgilab berdi. Sharqdagi Ipak yo'li tizimi nafaqat savdo yo'nalishi, balki madaniy va iqtisodiy aloqalarning markazi bo'lgan. U orqali nafaqat tovarlar, balki g'oyalar, ilm, din va texnologiyalar ham tarqalgan. Sharq mamlakatlaridagi soliq, bozor va moliya tizimlari keyinchalik Yevropadagi kapitalizm va bank tizmining ilk shakllariga ta'sir ko'rsatgan. Masalan, musulmon bozor iqtisodiyotidagi "muroabaha" va "mudoraba" kabi moliyaviy munosabatlar G'arbdagi kredit va sheriklik tizimlariga nazariy asos bo'lgan.

Iqtisodiy uyg'unlik insoniyat tarixidagi ilk globallashuv jarayonini belgilab berdi. O'tgan sivilizatsiyalarning madaniy, siyosiy va iqtisodiy ta'siri hozirgi davrdagi global uyg'unlikning ilmiy va ma'naviy ildizini tashkil qiladi. Agar G'arb bu ta'sirni ko'proq texnologik va iqtisodiy yo'nalishda baholagan bo'lsa, Sharq uni ma'naviyat, ilm va insonparvarlik asosida tushungan. Shuning uchun sivilizatsiyalar uyg'unligini anglash – bu faqat tarixiy tahlil emas, balki insoniyat kelajagini ma'naviy jihatdan ta'minlash vazifasidir.

IV. Sharqning G'arbgacha ta'siri

G'arb uyg'unishi ko'p jihatdan Sharq ilmiy merosi orqali yuzaga kelgan. XII asrda Ispaniya (Toledo)da arabcha asarlarning lotin tiliga tarjima qilinishi Yevropa tafakkurini o'zgartirdi. Ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Ibn Rushd (Averroes) kabi olimlarning asarlari Yevropa universitetlarida o'qitilgan. "Averroizm" oqimi O'rta asr G'arb falsafasida ratsional fikrning kirib kelishiga sabab bo'ldi. Ibn Sino ta'limoti Galileo va Dekartning ilmiy metodlariga, Beruniy va Xayyom g'oyalari esa Kopernik va Kepler nazariyalariga zamin yaratgan. Shunday qilib, G'arb Renessansi Sharq tafakkuri bilan oziqlangan, Sharq esa G'arb orqali o'z g'oyalarining global miqyosda davom etishini ta'minlagan.

G'arbda yuz bergan uyg'unish, mohiyatan, Sharq orqali saqlanib qolgan qadimgi yunon falsafasining qayta kashf etilishidan boshlandi. Yunon falsafasi Sharq tarjimonlari orqali arab tilida yashab qoldi, so'ngra lotin tiliga o'girilib, Yevropaga qaytdi. (55–56-betlar).

"O'rta asrlarda Sharq xalqlari, ayniqsa Movarounnahr, Xuroson, Bag'dod va Andalusiya madaniy markazlarida shakllangan ilmiy meros keyinchalik Yevropa Renessansining g'oyaviy manbalaridan biri bo'ldi. Ibn Sino, Forobiy, Beruniy,

Xayyom, Ibn Rushd kabi allomalar asarlari lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa universitetlarida asosiy o'quv qo'llanma sifatida foydalanilgan.”(F. Sulaymonova, “Sharq va G'arb”, 47–48-betlar)

Uyg'unlik masalasining texnik va zamonaviy jihatlar

XXI asr sivilizatsiyalar uyg'unligining yangi bosqichini boshladi – bu bosqichda uyg'unlik faqat madaniy yoki iqtisodiy emas, balki texnik, raqamli va ilmiy innovatsiyalar asosida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv jarayoni insoniyat hayotining barcha jabhalariga chuqur ta'sir etmoqda. Bu jarayonlar bir tomondan iqtisodiy rivojlanish, axborot almashinuvi, turli madaniyatlar o'rtasida muloqotni kuchaytirsang, ikkinchi tomondan milliy o'zlik, madaniy meros va milliy qadriyatlarga tahdid solishi mumkin. Shu bois globallashuv va milliy o'zlik o'rtasidagi dialektik munosabatni ijtimoiy-falsafiy tahlil etish zamonaviy dolzarb vazifalardan biridir.

1. Texnik uyg'unlik – axborot inqilobi davrida sivilizatsiyalar muloqoti

Bugungi kunda axborot texnologiyalari Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy, ilmiy va iqtisodiy aloqalarni tezlashtiruvchi asosiy omilga aylandi. Raqamli transformatsiya jarayonlari orqali turli sivilizatsiyalar o'rtasida ma'lumot almashuvi (ilmiy tadqiqotlar, onlayn ta'lim, raqamli kutubxonalar), raqamli iqtisodiyot tizimlari (kriptovalyuta, elektron savdo, blokcheyn), ilmiy hamkorlik (kosmik texnologiyalar, biotexnologiya, sun'iy intellekt) kabi yo'nalishlarda yangi uyg'unlik shakllari shakllanmoqda.

Masalan, Janubiy Koreya va Markaziy Osiyo davlari o'rtasidagi transport va “raqamli ipak yo'li” loyihalari texnik uyg'unlikning yaqqol ifodasidir. Shu jarayonda Sharqning jamoaviylik, hamkorlik va ma'naviyat qadriyatlari bilan G'arbning texnologik samaradorlik yondashuvlari bir-birini to'ldiradi.

2. Zamonaviy siyosiy uyg'unlik – global boshqaruv va diplomatik integratsiya

Zamonaviy xalqaro tizimda uyg'unlikning yangi shakli – ko'p qutbli diplomatik hamkorlik orqali namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan, BMT, YUNESKO, G20, ShHT, ASEAN kabi xalqaro tashkilotlarda sivilizatsiyalar o'rtasida hamkorlik texnik va boshqaruv tamoyillarida uyg'unlashmoqda. Masalan, Koreya Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi “K-City Network”, “Smart Logistics” va “Green Energy” dasturlari uyg'unlikning texnik-siyosiy ko'rinishidir. Bu jarayonda Sharqning barqarorlik, bag'rikenglik, ijtimoiy hamjihatlik tamoyillari G'arbning texnologik innovatsiyasi bilan birlashib, yangi diplomatik madaniyatni shakllantirmoqda.

3. Iqtisodiy-texnik uyg'unlik – raqamli iqtisodiyot va barqaror rivojlanish

Bugungi zamonaviy uyg'unlikning eng yaqqol sohasi — raqamli iqtisodiyot va “yashil texnologiyalar” sohasidir. Sharq sivilizatsiyasidagi tabiat bilan uyg'un hayot

falsafasi hozirda “green economy” va “sustainable development” konsepsiyalariga ilmiy asos bo’lib xizmat qilmoqda. G’arbda esa bu g’oyalar texnik amalga oshirish, ya’ni energiya tejamkor texnologiyalar, sun’iy intellekt, qayta tiklanuvchi manbalar orqali tatbiq etilmoqda. Shu tariqa, iqtisodiy va texnik uyg’unlik insoniyatning ekologik mas’uliyatini hamda inson va tabiat munosabatini qayta ko’rib chiqishga olib keldi. Zamonaviy uyg’unlik masalasi – bu faqat madaniy yoki siyosiy munosabat emas, balki intellektual va texnologik sivilizatsiyalarning birlashuvidir. Sharq va G’arb o’rtasidagi ilmiy, axborot va iqtisodiy hamkorlik XXI asrning yangi sivilizatsion modelini belgilamoqda. Bu modelda inson ma’naviyati, axborot texnologiyalari va tabiat bilan uyg’un yashash tamoyillari birlashib, global sivilizatsiyalar muloqotini barqaror rivojlanish bosqichiga ko’tarmoqda.

Ilmiy yangilik va zamonaviy ahamiyati

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi, avvalo, Sharq va G’arb renessansiga oid mavjud yondashuvlarni qayta ko’rib chiqish, sivilizatsiyalar uyg’unligi masalasini tarixiy, madaniy, siyosiy va texnik omillar kesimida kompleks tahlil qilishda namoyon bo’ladi. G’arb va Rossiya ilmiy maktablarida renessans va uyg’unlik masalasi ko’pincha tor falsafiy–geosiyosiy doirada o’rganib kelingan bo’lsa, ushbu maqolada ular bir butun sivilizatsiyaviy jarayon sifatida ko’rib chiqiladi.

1. Sivilizatsiyalar uyg’unligi nazariyasiga yangicha qarash. Tadqiqot Sharq renessansining G’arb uyg’unishiga ko’rsatgan ta’sirini faqat “bilim uzatish” doirasida emas, balki madaniy garmoniyaga asoslangan kompleks uyg’unlik modeli sifatida tahlil qiladi. Bu jihat hozirgi G’arb adabiyotlarida yetarlicha yoritilmagan. Masalan, Xantington yoki Fukuyama kabi tadqiqotchilar sivilizatsiyalararo munosabatlarni ko’proq raqobat, ziddiyat yoki ustunlik doirasida izohlagan. Ushbu maqola esa uyg’unlikni to’qnashuv emas, balki o’zaro boyish, bir-birini to’ldiruvchi taraqqiyot mexanizmi sifatida tushuntiradi.

2. Sharq renessansining ilmiy-metodik talqini. Sharq uyg’unishiga oid ko’plab tadqiqotlar ularni alohida shaxslar (Ibn Sino, Beruniy, Farobiy) merosi bilan chegaralaydi. Ushbu maqolada esa bu jarayon integral ilmiy maktablarning shakllanishi, ularning G’arbdagi analitik tafakkurga ta’siri, ilmiy uslub, tajriba, kuzatish va induktiv metodlarning G’arbgacha o’tish mexanizmlari bilan bog’lab ko’rsatiladi. Bu jihat bugungi ko’plab G’arb nashrlarida e’tibordan chetda qolgan.

3. Zamonaviy global jarayonlar bilan bog’langan yangi konsepsiya. Maqolaning eng dolzarb jihatlaridan biri shuki, unda Sharq va G’arb renessansini faqat tarixiy hodisa sifatida emas, balki XXI asrning global madaniy va siyosiy transformatsiyalariga ta’sir qiluvchi omil sifatida talqin qilinadi. Bugungi kunda

dunyo “digital renessans”, “madaniy uyg‘unlik”, “global axborot almashinuvi” kabi yangi bosqichlarga kirib bormoqda. Maqola aynan tarixiy uyg‘onish g‘oyalari bilan zamonaviy raqamli sivilizatsiya o‘rtasidagi ideaviy uzluksizlikni yoritib beradi.

4. Ilgari o‘rganilmagan texnik uyg‘unlik masalasi. Ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda Sharq va G‘arb uyg‘onishining faqat madaniy yoki falsafiy jihatlari yoritilgan. Ushbu maqolada esa texnik uyg‘unlik — ya‘ni matematik modellar, astronomiya, tibbiyot, kartografiya, mexanika va texnologiya sohalaridagi bilim almashinuvi — alohida ilmiy tahlil qilinadi. Bu mavzu hozirgi ilmiy adabiyotlarda kam yoritilgan bo‘lib, maqolaning o‘ziga xos yangiligini ta‘minlaydi.

5. Uyg‘unlik konsepsiyasining yangi ilmiy modellashtirilishi. Tadqiqot Sharq falsafasidagi uyg‘unlik g‘oyasini — Farobiyning “Faxrul-madina”si, Konfutsiy etikasi, islom tamaddunidagi muvozanat konsepsiyasi — bilan Yevropa uyg‘onishidagi antropotsentrik va ratsionalistik yondashuvlarni qiyoslab, yangi sivilizatsiyaviy integratsiya modeli ishlab chiqadi. Bu model madaniy, iqtisodiy, siyosiy va texnik omillarni bir butun tizim sifatida ko‘rib chiquvchi yondashuvdir. Mavjud adabiyotlarda bunday integrativ model hali mukammal shakllanmamagan.

6. Tadqiqotning amaliy ahamiyati. XXI asr diplomatiyasi va xalqaro munosabatlarda uyg‘unlik tamoyillari asosida ko‘p qutbli dunyo modelini tushunishga yordam beradi. Ta‘lim va ilmiy tadqiqotlarda Sharq va G‘arb uyg‘onishining uyg‘un talqinini beruvchi integrativ yondashuvni taklif etadi. Madaniyatlararo dialog, geosiyosat, xalqaro hamkorlik sohalarida yangi ilmiy-uslubiy asos yaratadi. Zamonaviy texnik taraqqiyot (AI, raqamli madaniyat, biotexnologiya) bilan tarixiy uyg‘onish o‘rtasidagi uzviylikni ko‘rsatib, siyosat va innovatsion dasturlar uchun g‘oyaviy asos bo‘la oladi.

XULOSA

Sharq va G‘arb Renessanslari — insoniyat tafakkurining ikki qanoti bo‘lib, biri aql va ma‘naviyatni uyg‘unlashtirgan, ikkinchisi esa erkin tafakkur va san‘at orqali insonni kashf etgan. Ularni birlashtiruvchi omil — inson qadri, ilmga ishonch va komillikka intilish. Sharq renessansi mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ilmiy meros — falsafa, tibbiyot, matematika, astronomiya, texnika va axloq nazariyalari — G‘arb uyg‘onishining intellektual poydevorini mustahkamlagan. G‘arb renessansi esa o‘z navbatida, bu ilmiy merosni tajriba, ratsional metod va texnologik amaliyotlar bilan boyitgan. Bugungi global davrda bu g‘oyalar insoniyatni tinchlik, ma‘rifat va madaniy hamkorlik sari yetaklaydigan kuch bo‘lib qolmoqda. Sharqning aql va ma‘naviyat uyg‘unligi G‘arbning tajriba va erkinlik ruhi bilan qo‘shilganda, haqiqiy insonparvarlik sivilizatsiyasi yuzaga keladi.

Sharq allomalari uchun ilm faqat bilish emas, balki insonni axloqiy komillikka yetkazish vositasidir. Forobiy ‘Fozil odamlar shahri’ g‘oyasida insonni jamiyat baxtining mezonini deb biladi, bu fikr keyinchalik G‘arb gumanistlari – Erazm, Makiavelli va Mor qarashlarida ham aks etadi.(61–62-betlar) Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy aloqalar bir yo‘nalishda kechmagan, balki ikki tomonlama bo‘lgan. G‘arb Sharqdan ilm, falsafa va tibbiyot sirilarini o‘rgangan bo‘lsa, Sharq G‘arb orqali texnik tafakkur va tajribaviy usullarni qabul qilgan.(110-bet)

Madaniyatlararo o‘zaro muloqoti tarix davomida ikki tomonlama jarayon bo‘lib, har ikki sivilizatsiyaning boyishiga xizmat qilgan.(Sulaymonova,2019, 119-bet).Sharq va G‘arb Renessansi bir-birini to‘ldiruvchi ikki uyg‘onish bosqichidir. Sharq – g‘oyaviy va ilmiy asosni bergan bo‘lsa, G‘arb – ularni ijtimoiy va madaniy shaklda rivojlantirgan.Bu esa sivilizatsiyalararo muloqotning abadiyligini ko‘rsatadi.

Bugungi dunyo “digital renessans”, texnologik uyg‘onish va madaniyatlararo dialog bosqichiga kirar ekan, Sharq va G‘arb renessansi tajribasi global integratsiya uchun bebaho tarixiy, falsafiy va ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Sivilizatsiyalarning bir-birini to‘ldiruvchi tabiati, ularning o‘zaro boyituvchi ilmiy va madaniy hamkorligi barqaror taraqqiyot, tinchlik va ko‘p qutbli global tizimning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.Shu bois, mazkur maqola Sharq va G‘arb uyg‘onishining uyg‘unlik va tafovutlar orqali shakllangan murakkab tabiatini ko‘rsatib, zamonaviy ilmiy izlanishlar uchun yangi konseptual yondashuv — integral uyg‘unlik modelini taklif etadi. Bu model tarixiy jarayonlarni yangicha ilmiy o‘qish, madaniy merosni zamonaviy global tendensiyalar bilan bog‘lash va sivilizatsiyalararo aloqalarni chuqurroq tushunish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sulaymonova, F. (2019). *Sharq va G‘arb (Qadimiy davr va o‘rta asrlar madaniy aloqalari)*. Namangan: Namangan Davlat Universiteti nashriyoti
2. Saidov, A. (2005). Markaziy Osiyo uyg‘onish davri va jahon sivilizatsiyasi. Toshkent: Ma‘naviyat nashriyoti.— Markaziy Osiyo uyg‘onishining falsafiy asoslari va Yevropa Renessansiga ta’siri haqida.
3. Nasr, S. H. (2007). *Science and Civilization in Islam*. Cambridge: Harvard University Press.— Islom olamidagi ilmiy uyg‘onishning G‘arbdagi ilm-fan rivojiga ta’siri haqida fundamental tadqiqot.
4. Toynbee, A. J. (1957). *A Study of History*. Oxford: Oxford University Press.— Sharq va G‘arb tsivilizatsiyalarining rivojlanish bosqichlarini taqqoslovchi tarixiy tahlil.

5. Haskins, C. H. (1927). The Renaissance of the Twelfth Century. Cambridge: Harvard University Press.— Yevropa Renessansining dastlabki ilmiy bosqichlari haqida klassik manba.
6. Burckhardt, J. (1990). The Civilization of the Renaissance in Italy. London: Penguin Classics.— G‘arb Renessansining madaniy, siyosiy va falsafiy ildizlarini tahlil qiluvchi mashhur tadqiqot.
7. G‘ulomov, Z. (2017). Sharq mutafakkirlari va Yevropa uyg‘onish davri tafakkuri. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.— Ibn Sino, Forobiy va Beruniy g‘oyalarining Yevropa tafakkuriga singishi haqida zamonaviy tahlil.
8. Sarton, G. (1950). Introduction to the History of Science. Baltimore: Williams & Wilkins.— Islom olimlarining Yevropa ilmiy uyg‘onishidagi roli haqida ensiklopedik tadqiqot.
9. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning falsafiy tafakkuri. T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2010
10. Abduhalimov B. A. “Bayt al-hikma” va O‘rta Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati: (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar). -T., Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2004. – 236 b.
11. Lex.uz: O‘zbekiston Respublikasi allomalari.../uz.fundamentalqonun hujjatlari [www.lex.uz/O‘zbekiston-respublikasi-qonun-hujjatlari-milliy-bazasi](http://www.lex.uz/O'zbekiston-respublikasi-qonun-hujjatlari-milliy-bazasi)
12. Sivilizatsiyalar taraqqiyotida madaniyatlar to‘qnashuvining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati (Samyuel F. Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” asari asosida) <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N28>